

## **5. Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).**

O'quvchilar quyidagi savollarga javob beradilar:

Yangi yil archangizni nima bilan bezadingiz? (Plastilindan yasalgan o'yinchoqlar va qor bilan).

Archalaringizdagi qor nimadan yasalgan? (Paxtadan).

Paxta nimadan tayyorlanishini bilasizmi? (Paxta o'simligidan).

### **Kutilayotgan natijalar:**

- o'quvchilar bezash uchun tabiiy materiallardan foydalanish haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar;
- o'quvchilarda tasavvuri va ijodkorliklari rivojlanadi;
- o'quvchilarda jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi;
- o'quvchilarda yakuniy natijaga erishish uchun harakatlarning to'g'ri ketma-ketligini bajarish ko'nikmasi rivojlanadi.

## **14-DARS. BULUTCHA**

### **Dars maqsadlari:**

- o'quvchilarning tabiiy hodisalar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;
- o'quvchilarda inson foydalanadigan materiallar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish;
- xayol, mantiqiy va fazoviy tafakkurni rivojlantirish;
- turli xil materiallardan applikatsiyalar yaratishni o'rgatish;
- nozik motorikani rivojlantirish.

**Kerakli materiallar:** darslik, rangli qog'oz, karton, qaychi, oq rangli ipler, paxta, oq qog'ozdan tayyorlangan bulutcha shaklidagi andoza, namuna.

### **1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

### **2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi savollar beradi:

O'tgan darsda qanday yangi material bilan ishladingiz? (Paxta).

Paxtadan nimalar yasadningiz? (Archa ustidagi qor).

Sizningcha, paxta nima uchun qorga o'xshaydi? (Oq, yumshoq, momiq).

O'qituvchi darsning maqsadi paxtadan "bulutcha" applikatsiyasi yasash ekanligini aytadi.

### **3. Namuna tahlili (5 daqiqa).**

Darsning bu qismi an'anaviy tarzda o'tkaziladi. Darslikda berilgan video yo'riqnomada yordamida o'quvchilar ish rejasini tuzib, amaliy qismni bajarishlari mumkin. O'qituvchi paxtadan qor uchqunlarini yasash va ularni iplarga mahkamlash usulini ko'rsatib beradi. O'quvchilar o'qituvchining harakatlarini takrorlaydilar.

### **4. Amaliy qism (25 daqiqa).**

Avvalo, o'quvchilar havo rang fon tayyorlashlari kerak. Buning uchun havo rang karton tanlash yoki oq kartonga havo rang qog'oz yopishtirish mumkin. Keyin o'quvchilar fon uzunligiga mos 4-5 ta oq ip kesib olishlari lozim. Keyingi bosqichda paxtadan kichik qor uchqunlarini yumalatib yasash kerak. Paxtadan yasalgan qor uchqunlarini tayyorlangan ip bo'laklariga mahkamlash lozim. Bulutcha shaklidagi andozani va qor uchqunli iplarni applikatsiya asosiga yopishtiriladi. O'quvchilar ishni mustaqil bajaradilar. Zarur bo'lsa, o'qituvchi yordam beradi.

### **5. Yakunlash va refleksiya (5 daqiqa).**

O'qituvchi savollar beradi:

Bugun ishlaringizda tabiatning qaysi hodisasini tasvirladingiz? (Qor yog'ishi).

O'zbekistonda qishda yana qanday ob-havo kuzatiladi? (Yomg'irli, quyoshli, bulutli).

#### **Kutilayotgan natijalar:**

- o'quvchilar O'zbekistonda qish mavsumidagi tabiiy hodisalar haqida tasavvurga ega bo'ladilar;
- o'quvchilar turli materiallardan qo'l mehnati buyumlarini yasash imkoniyatlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar;
- o'quvchilarda xayol, mantiqiy va fazoviy tafakkur rivojlanadi;
- o'quvchilar turli materiallardan applikatsiyalar yarata oladilar;
- o'quvchilarda nozik motorika rivojlanadi.

## **15-DARS. BALIQCHALAR**

#### **Dars maqsadlari:**

- qog'ozdan shakllarni kesish, qirqish, bukish va yopishtirish texnikasi haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- qo'l mehnati buyumlarini yasash uchun kesish va yopishtirish ko'nigmalarini qo'llashni rivojlantirish;
- xayol, mantiqiy va fazoviy tafakkurni o'stirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish qobiliyatini shakllantirish.